

## Nazar Eshonqul Asarida Tush Motivi ( “ Taqiq Mevasi ” Romani Va “ Qora Kitob ” Qissasi Misolida )

*Solijonova Mohina Abdujabbor qizi*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek nasrining o'ziga xos uslubiga ega bo'lgan , XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida yozgan asarlari orqali adabiyotimizda yangicha bir yo'nalishni boshlab bergan Nazar Eshonqulning “ Taqiq mevasi ” romani va “ Qora kitob ” qissasidagi tush motivlari va ularning asarga stilizatsion uslubda olib kirilishi haqida fikr yuritiladi .

**Kalit so'zlar:** tush , motiv , yadro , stilizatsiya , kompozitsiya , obraz , uslub .

Barchamizga ma'lumki , o'zbek adabiyotida turli motivlardan foydalanish yetakchlik qiladi , zero bu motivlar asarga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tush motivi barcha asarlarda an'anaviy tarzda namoyon bo'ladi va bu motiv bugungi kunda takomillashib, zamonaviy adabiyotda ham qo'llanilib kelinmoqda . Xalq og'zaki ijodidan boshlangan bu badiiy tajriba mumtoz ijodkorlar tomonidan yanada mahurat bilan davom ettirilmoqda . Endilikda davr adabiyotida bu tajriba yanada boyidi. Tush epizodlari kompozitsion vosita sifatida yo asar boshida keladi , yoki kulminatsion qismda aks etadi. Tush islohi ilmiy jihatdan ko'p o'rganilgan bo'lib, tushning badiiy ijoddagi o'rnini X. Safarova , M. Narziqulova kabi boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ismatova Sh.ning “Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari” ilmiy Ishida ham tushning badiiy asarda tutgan vazifasiga urg'u beriladi. Jumladan, J. Eshonqulning “ O'zbek folklorida tush motivi va uning badiiy talqini ” kitobida tush motiviga shunday ta'rif beriladi : “ Tush o'ziga xos ramziy tizimlari, ta'birlari obrazli ifodasi talqini bilan jahon xalqlari folklori uchun umumtarixiy -tipologik, o'zbek xalq ijodi uchun etnik- tarixiy , badiiy -estetik xodisadir. Tush talqinlari, unga munosabatning badiiy – estetika hodisaga aylanishi uzoq tarixiy davrlar davomida kechgan *bu tarixiy-folkloriy jarayonni* ilmiy tadqiq qilish, umuman, insonning falsafiy va badiiy tafakkuri tarixini o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega ”. <sup>2</sup> Nazar Eshonqul ham o'zining hikoya , qissa , romanlarida tush motiviga bot-bot murojaat qiladi. Ularda ma'lum vazifa bor ekanligi yaqqol seziladi. Folklor asarlarida tush motivining qo'llanilishi ko'proq bashorat, kelajakka ishorat tarzida bo'lsa, Nazar Eshonqul asarlarida ham shu kabi ma'no bilan bir qatorda, ruhiy tahlil, ong ang'ay olmagan voqelikni, ongosti sezimlari bilan ramziy ko'rsatilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan , “ Boburnomada” Qutlug` Muhammad bilan bog`liq tush epizodi keltiriladi : <sup>3</sup> : *Qutlug` Muhammad barlos dedikim : - Axsidan qochib chiqq`anda sizdan ayrila tushganda Andijon keldimkim, xonlar ham Andijon kelib turlar. Men tush ko`rdimki, Xoja Ubaydulloh dedilarkim, Bobur podshoh Karnon degan kentdadur, borib, ani olib kelingkim, podshohlik masnadi anga taalluq bo`lubtur. Men bu tushni ko`rib xushhol bo`lib, ulug` xon , kichik xonga arz qildim*”. *Qutlug` Muhammad o`z tushidagi ko`rsatmalarga amal qilib, Boburni izlab topadi. Bu esa Bobur ham , uning zamondoshlari ham o`z tushlariga bee`tibor bo`lmaganidan dalolat beradi.* Bu tush motivi orqali podshohni keladigan balo va ofiyatlardan asrash , unga munosib joyga olib boorish kerak ekanligi tush motivi orqali gavladantirilgan.

Bilamizki, tushlar ko'p holatda kelajak taqdiridan hikoya qilib keladi. Ular dostonlarda, folklorning deyarli barcha janrlarida mutaassil uchaydi. XX asr boshlaridan boshlab adabiyotga modernistic ruh kirib kela boshladi, yozuvchilar o'z asarlarida modernizm va postmodernizmdan foydalana boshladilar. Shunday ijodkorlardan biri bo'lgan Nazar Eshonqul ham o'zining “ Taqiq mevasi ”

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti 2- bosqich magistranti

<sup>2</sup> J. Eshonqul O'zbek folklorida tush motivi va uning badiiy talqini . Tosh. 2011. 8- bet.

<sup>3</sup> Z.M. Bobur . Boburnoma -75-bet.



romanida tush motividan foydalanib nafaqat kelajak taqdir, balki obrazlar ruhiyatini va ichki kechinmalarni ochib berish uchun ham foydalangan. Asar postmodernistik ruhda yozilgan bo`lib, barchamizga ma`lum bo`lgan “ Odam Ato va Momo Havo ” qissasi asar sujetiga stintezlashgan usulda olib kirilgan. *Bosh qahramon O. har on tushlarida Malakni ko`rardi, Malak har doim uning tushida olma gulli oppoq ko`ylakda namoyon bo`lardi. U huddi farishtadek ,ilohdek tuyilardi. O.ning ko`ngli Malakka tushgach bu ishqdan u huddi Majnundek sarxushga aylangan edi. Ko`chalar kezar va har doim olma daraxti ostiga borardi, tun payti bo`lsa , tushida Odam Ato va Momo Havoni ko`rar va Havoga olma uzib berayotgan Iblis uning qarshisida paydo bo`lardi.* <sup>4</sup> Bu tush motivi orqali ko`rishimiz mumkinki, asar bosh qahramoni , abadiy ishqqa muhtalo bo`lgani va bu ishq unga Yaratgan tomonidan taqdir bitigi bo`lib yozilgani tufayli uni bierzumga ham tinch qo`ymas edi. O.ning kelajak taqdiri bashorati Malakni Iblis iskanjasiga tushmasligi uchun ham uning tushlarida doimo Malak Momo Havoning xatosini takror sodir etmasligi kerak ekanligiga ishora qilar edi.

*Tushlari uni U tomonga olib qochardi.*

*U havorang nimchada paydo bo`lar edi. Boshiga ro`molcha o`rab olgandi. U nimalardir dedi – o`zi ham eshitmadi, o`zi ham anglamadi. U ham nimalardir dedi- uni ham eshitmadi. U eshitishdan ko`rishdan xoli edi : uning bor vujudi edni ko`ngilga aylangandi: faqat sezardi, his qilardi, .....sevardi. G`ayritabiyy tarzda uni quchdi. Uning ko`zlari kulib turardi.Uni tushlarida birinchi marta o`pishi edi: uyg`ongach kattta savol uning boshiga kelib tushdi: “ Bu Iblis o`pichi emasmi?!”*

Bundan ko`rinib turubdiki, asar voqealarining keying “ taqdiri” shu tushning ifodasi o`laroq davom etadi. E`tiborli jihati shundaki, dastlab tahlil qilgan “ Boburnoma”da hamda ushbu romada ham tushlar bir xil kelajakdan darak tariqasida ifoda etilyapti. Aslida bu tush emas, yozdig` edi, taqdirning hukmi edi. Ya`ni bir so`z bilan aytganda asarning “ yadrosi” edi.

Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasida inson tarbiyasi, taqdiri kabi masalalar asosiy o`rinni egallaydi. Asar g`oyasi butun insoniyat taqdirining bir inson hayoti misolida aks etgan. Yozuvchi qahramonining ismini bildirmaydi. Bu esa asar voqealarining har bir o`quvchiga tegishlilikini bildiradi.

Asar qahramoni ziyoli, yetmishni qoralagan, o`zligini anglab yetgan inson hisoblanadi, ya`ni u ham aybdor, ham tergovchi, ham hakam bo`lib hayotini taftish qiladi, xatolari uchun muqarrar hukm e`lon qiladi. U shu yashab turgan hayotimizda tayinlanadigan jazodan qo`rqmaydi: “Jazo nima u? Shunchaki rasmiy marosim. Hakamlar, tergovchilar kun kechirishi uchun o`ylab topilgan marosim”. <sup>5</sup>

Bosh qahramon bir kuni katta o`g`lining kundaligini topib oladi.Unda bir Shomon qabilasi haqida afsona yozilgan edi: “ Shomon qabilasi o`z ta`siriga bo`ysundirish uchun sexr-u joduga ega bo`lish niyatida Iblisga o`z qalbini sotadi” . O`g`li bir tush ko`radi: “ Tush ko`ribman. Tushimda qalbini sotayotgan o`sha Shomon men emishman . Shayton tirjayib turarmish va agar ikkalamiz bir-birimizdagi eng aziz narsalarni almashtirsak, ikklamiz ham murodga yetamiz dermish. Men Shomon kiyimida, yuzim bo`yab tashlangan emish. G`alati tush. Uyg`onganimda terlab ketgan edim. Bir-ikki kun nimadir yo`qotib qo`yganga o`xshab yurdim.Nima u ? Balkim, tushning noxush taassurotidir”.<sup>6</sup>

Bu tush motivi orqali bilishimiz mumkinki, o`g`il o`z qalbini Iblisga almashtirdi va Iblis unga o`z o`g`liga rahnamolik qilgandek, katta o`g`ilga otalik qila boshladi. Endi bu o`g`il o`z otasining farzandi emas, Shaytonning o`g`liga aylangandi. Yozuvchi buni ifodalash uchun tush motividan mohirona foydalanib, personajlar kelajagi va taqdiri haqida o`z tushlarida bayon etdi. Nazar Eshonqulning ushbu asarlarida tush motivlari nafaqat kelajak taqdir, balki qahramon ichki ruhiyati va uning dunyosini ochib berish uchun ham asarga olib kiriladi va ko`p hollarda tush motivi tugun qismda yoki kulminatsiya beriladi, buning sababi ijodkor kitobxonni fikrlashga va mulohaza yuritishga undaydi.

<sup>4</sup> Nazar Eshonqul Saylanma II jild. .2022. Taqiq mevasi .Ikkinchi novelladan

<sup>5</sup> Nazar Eshonqul Saylanma II jild.2022. 195-bet.

<sup>6</sup> Nazar Eshonqul. Saylanma II jild . 558-bet.



“Ibtidoiy inson nazarida tush “mabudlar” bilan aloqa qilish vositasi hisoblangan. Shuning uchun ular tushni muqaddas deb bilishgan”.<sup>7</sup>

Xulosa qiladigan bo`lsak, tush motivlari qadim folklor davridan boshlab hozirgi zamonaviy asarlarda ham foylanilmoqda. Nazar Eshonquldan nega bunday mulohazakor bo`lgan o`zgacha uslubda asar yaratmasiz deyishsa, yozuvchi shunday javob bergan ekan: *“Har bir inson asarlarda o`zini topa bilsin va inson haqida, uning kelajagi haqida fikr yuritishni o`rgansin”*. Shunday ekan har bir katta-kichik janrdagi asarga olib kirilgan motiv va timsollarda chuqur ma`no mujassamdir. Zero, tush motivi ham yozuvchi asarlariga mohirona usulda olib kirildi va asar “yadrosi”ga, ya`ni voqealar rivojini bayon qilishga yordam berdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. J.Eshonqul. “O`zbek folklorida tush va uning badiiy talqini”. Toshkent 2011.
2. Nazar Eshonqul. Saylanma I va II jildlar. Toshkent 2022.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”.
4. Xurshid Davron kutubxonasi ma`lumotlari.
5. Ismatova Sh. “Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari” avtoreferat.

---

<sup>7</sup> J. Eshonqul. O`zbek folklorida tush va uning badiiy talqini .Toshkent.2011.18-bet.

